

## KIBERXAVFSIZLIK SOHASIDA DAVLATLARNING MAJBURIYATLARINI XALQARO DARAJADA BELGILASH .

Qurbanov Siyovush Jamaliddinzoda

Toshkent davlat yuridik  
universitetining

Ommaviy huquq fakulteti talabasi.

*Annotatsiya . Kiberxavfsizlik sohasida davlatlarning majburiyatlarini xalqaro darajada belgilash – zamonaviy dunyoda milliy va global xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga kiberxavfsizlik masalalari davlatlar uchun yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat davlatlar o'rtasida kiberxavfsizlik sohasidagi majburiyatlarni aniq belgilash va bu sohadagi hamkorlikni rivojlantirish zaruratini sezilmoqda. Shu bilan bir qatorda kiberxavfsizlik sohasini kuchaytirish ehtiyojlari kundan-kunga davlatning ortib bormoqda . Shuningdek davlatning kiberxavfsilik choraarini kuchaytirish maqasadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik funksiyalarni yo'lga qo'yamoqda . Bu esa davlatlarning ma'lum bir darajada kiberxavfsizlikka qarshi jinoyatlarni oldini olishga ko'makashmoqda desak mubolag'a bolmaydi .*

**Kalit so'zlar :** Kiberxavfsizlik, Davlatning majburiyi , Kiberjinoyatchilik ,Xalqaro hamkorlik .

Курбанов Сиёвуш

Джамалиддинза

Ташкентский государственный юридический  
университет

Студент факультета публичного  
права

## Государства в сфере кибербезопасности

### определение обязательств на международном уровне.

**Аннотация.** Определение обязательств государств на международном уровне в сфере кибербезопасности имеет важное значение в обеспечении национальной и глобальной безопасности в современном мире. Наряду с развитием Интернета и цифровых технологий, вопросы кибербезопасности создают новые угрозы для стран. Поэтому международное сообщество ощущает необходимость четко определить обязательства в сфере кибербезопасности и развивать сотрудничество в этой сфере. Также в целях усиления мер кибербезопасности государства разворачивается сотрудничество с международными организациями. Не будет преувеличением сказать, что это в определенной степени помогает государствам предотвращать преступления против кибербезопасности.

**Ключевые слова:** Кибербезопасность, Обязательства государства, Киберпреступность, Международное сотрудничество

KurbanovSiyovush

Jamaliddinza

Tashkent State Law University Student of the  
Faculty of Public Law

**States in the field of cyber security determination of  
obligations at the international level.**

**Annotation.** Determining the obligations of states at the international level in the field of cyber security is important in ensuring national and global security in the modern world. Along with the development of the Internet and digital technologies, cyber security issues are creating new threats for countries. Therefore, the international community feels the need to clearly define obligations in the field of cyber security and to develop cooperation in this field. Also, in order to strengthen the

cyber security measures of the state, cooperation with international organizations is being launched. It is no exaggeration to say that this helps the states to prevent crimes against cyber security to a certain extent.

**Key words:** Cybersecurity, State obligation, Cybercrime, International cooperation.

### Kirish :

**Kiberxavfsizlik sohasida davlatlarning majburiyatlarini xalqaro darajada belgilash** – zamonaviy dunyoda milliy va global xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga kiberxavfsizlik masalalari davlatlar uchun yangi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, xalqaro hamjamiyat davlatlar o'rtasida kiberxavfsizlik sohasidagi majburiyatlarni aniq belgilash va bu sohadagi hamkorlikni rivojlantirish zaruratini sezilmoqda. Ya'ni kiberjinoyatlarning oldini olish bo'yicha davlatlarda kiberxavfsizlik sohasida xalqaro majburiyatlarni belgilash tartibi joriy etilmoqda . Biz kiberxavfsizlik tushunchasiga ta'rif berishimizdan oldin kiberjinoyat tushunchasiga ta'rif berib o'tishimiz lozim .

**Kiberjinoyatchilik** — axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalilanigan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi<sup>1</sup>.

Ya'ni davlatlar kiberjinoyatchilikning odini olish va unga qarshi zamonaviy choralar ko'rish uchun bugungi kunda ko'plab say-harakatlar amalga oshirilmoqda . Shuningdek kiberxavfsizlik sohasida davlatlar xalqaro huquq asosida bir qator majburiyatlarga ega bo'lib, ularni bajarish global xavfsizlik va barqarorlikni

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 21 b.

ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. BMT, Budapesht Konvensiyasi va INTERPOL kabi tashkilotlar ushbu majburiyatlarning amalga oshirilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Davlatlar birgalikda harakat qilib, xalqaro miqyosda kiberxavfsizlikning yuqori darajada ta'minlanishini yo'lga qo'yishlari mumkin. Birinchi navbatda xalqaro kiberjinoyatchilikni oldini olish uchun va unga qarshi choralar ko'rish uchun davlat xalqaro Kiberjinoyatchilikka qarshi tashkil etilgan tashkilotlarga a'zo bo'lishi lozim. Shundagina davlat kiberjinoyatlarning soni kamayishiga yoki ularning to'liq oldi olinishiga erishishi mumkin. Bunda davlat kiberxavfsizlik sohasini kuchaytirish uchun o'z oldiga ma'lum bir majburiyatlarni qo'yishi kerak. Ushbu majburiyatlar quyidagilardan iborat bo'lib:

**Birinchidan :** Davlat milliy kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Bu strategiyalar milliy infratuzilmani himoya qilish, kiber tahdidlarga tezkor javob berish va himoya choralarini belgilashga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan bir qatorda milliy strategiya xalqaro kiberxavfsizlik me'yordi va standartlariga muvofiq bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda davlat milliy qoidalarni xalqaro kelishuvlar bilan uyg'unlashtirishga intilishi lozim.

**Ikkinchidan :** Kiber tahdidlarga qarshi mudofaa choralarни ko'rish ya'ni, davlat kiber hujumlar va kiberjinoyatlarni aniqlash, ularni oldini olish va tezkor javob berish uchun choralarini yaratishi lozim. Bu uchun davlat muassasalarida texnologik xavfsizlik tizimini o'rnatilishi, maxsus axborot texnologiyalari xodimlarini tayyorlash va ularni zarur resuslar bilan ta'minlashi lozim.

**Uchinchidan :** Davlat kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish uchun qonuniy bazani yaratish majburiyatiga ega. Bu qonunlar kiberjinoyatlarni jinoyat deb tan olishi va ularga qarshi chora-tadbirlarni belgilashi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek davlat Budapesht Konvensiyasi kabi xalqaro kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyalarga qo'shilib, davlat o'z hududida kiberjinoyatlarga qarshi qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishi kerak.

**To'rtinchidan :** Kiber tahdidlar davlat chegaralarini tan olmaganligi sababli davlatlar o'zaro hamkorlik qilishlari va axborot almashishlari lozim. Bu kiberjinoyatlarni tergov qilishda, texnologik yordam berishda va transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega ekanligi bizga ma'lum. Shunindek davlatlar BMT,

INTERPOL, va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali kiber tahdidlarga qarshi global darajada himoya choralari ko‘rishlari lozimligi bu davlatning kiberxavfsizlik choralarini ko‘rishdagi eng muhim jarayyon desak mubolag’a bo’lmaydi .

Shuningdek kiberxavfsizlik sohasida davlatning eng muhim majburyatlaridan biri bu Fuqarolar va biznes subyektlarini kiberxavfsizlikka oid bilimlar bilan ta’minalash . Statistik ma’lumotlarga qaraganda kiberjinoyatlarning ko’p qismi asosan fuqarolar va xususiy sektorga moliyaviy zarar keltirishini hisoblab chiqgan . Ya’ni fuqarolar va xususiy sektorlar uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha o‘quv dasturlari tashkil etishi kerakligi va bu bilimlar odamlarning kiberhujumlarga qarshi o‘zini himoya qilish qobiliyatini oshiradi va davlatning umumiyligini xavfsizlik tizimini mustahkamlaydi.

Fuqarolarni xabardor qilish orqali davlat kiberjinoyatlarning oldini olishga ko‘mak beradi va ularga qarshi kurash imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek davlat kiberxavfsizlik choralarini qo‘llashda inson huquqlarini, shaxsiy hayot daxlsizligi va axborot erkinligini hurmat qilishga majburdir. Kiberxavfsizlikni ta’minalashda ortiqcha nazorat va kuzatuv fuqarolarning shaxsiy hayotiga aralashmasligi kerak. Davlat o‘zining kiberxavfsizlik siyosatini xalqaro inson huquqlari standartlariga muvofiq tarzda ishlab chiqishi lozim.

Yuqorida keltirib o’tilgan kiberxavfsizlik sohasida davlatning majburiyatları keng ko‘lamli va xalqaro hamkorlikni talab qiladi. Davlatlar o‘z hududida milliy infratuzilmani himoya qilish, fuqarolarni axborotlashtirish va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish uchun huquqiy asos yaratish orqali bu majburiyatlarni bajarishi kerak. Shu bilan birga, davlatlar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, kiberxavfsizlikni ta’minalashda global mas’uliyatga ega ekanliklarini tan olishlari lozim.

Bunda birinchi navbatda davlat xalqaro kiberxavfsizlik tashkilotlariga a'zo bo'lishdan boshlanishi kerak . Masalan Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 25fevralda qabul qilingan, Senat tomonidan 2022-yil 17-martda ma'qullangan “Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi” qonunning bir nechta moddalarida O‘zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlikni ta‘minlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligini ta’kidlab o’tgan (**4-modda**) . Shu bilan bir qatorda ushbu qonunning **9-moddasida** “*O‘zbekiston Respublikasi kiberxavfsizlikni ta‘minlash sohasida xalqaro shartnomalar doirasida xalqaro tashkilotlar, chet davlatlar va ularning vakolatli idoralari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi*”. degan normalar mustahkamlangan . Demak O‘zbekiston Respublikasi ham kiberxavfsizlikka befarq emasligidan dalolat berdi .

Bizga ma'lumki kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro tashkilotlar va davlatlar kelishuvlari kiberjinoyatlarga qarshi kurash, axborot xavfsizligini ta‘minlash va davlatlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Quyida kiberjinoyatlarga qarshi kurash sohadagi asosiy xalqaro tashkilotlar va kelishuvlar haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib ushbu tashkilotlarning kiberxavfsizlik sohasidagi amalga oshirilayotgan faoliyatları to'grisida ma'lumot berib o'tsak . Kiberxavfsizlik sohasida judda katta tashabbuslar ko'rsatayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) . Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi tarkibida tashkil etilgan ochiq hukumatlararo ekspert qo'mitasining tashkil etilishi bilan BMT tomonidan kiberjinoyatlarga qarshi kurash va xalqaro hamkorlik bo'yicha aniq qadamlar qo'yildi. 2010-yil 12-19-aprel kunlari BMTning Jinoyatchilikni oldini olish va Adolatli sudlov bo'yicha bo'lib o'tgan XII Kongressi yakunida qabul qilingan Salvador deklaratsiyasining 42-moddasida ekspertlar qo'mitasini tashkil etish masalasi ijrosi, Bosh Assambleyaning 65/230-sonli qarori bilan tasdiqlandi<sup>2</sup>.

---

<sup>2</sup>

<https://www.unodc.org/unodc/en/organized-crime/open-ended-intergovernmental-expert-group-meetingoncybercrime.html> (28.05.2018)

2011-yilda mazkur ekspertlar qo'mitasi, xalqaro hamjamiyat, a'zo davlatlar va xususiy sektorlar birgalikda, milliy qoidalar, amaliyotlar, texnik kuzatuv va xalqaro hamkorlik bo'yicha axborot almashinuvini ta'minlash orqali mavjud kurash usullarini mustahkamlash, yangi milliy va xalqaro usullarini ishlab chiqish bo'yicha uchrashuvlar o'tkaza boshladi. Ekspert qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masalalar qatorida milliy huquq tizimlari o'rtasidagi uyg'unlik va kiberjinoyatchilikni tartibga solishda xalqaro hamkorlik masalalari ham o'rtaqa tashlandi. Xalqaro hamkorlik nuqtai nazaridan, ayniqsa, xalqaro va mintaqaviy xalqaro shartnomalarning o'rni va ahamiyati alohida ta'kidlandi. Ekspertlar qo'mitasi tarafidan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarga ko'ra, kiber jinoyatlar uchta asosiy toifaga bo'linadi. Bularga quyidagilar kiradi: *kompyuter ma'lumotlari va tizimlarining maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligiga qarshi harakatlar, shaxsiy yoki moliyaviy foyda yoki zarar keltiradigan kompyuter bilan bog'liq harakatlar va kontent bilan bog'liq fa'oliyat*<sup>3</sup>. **Birinchi toifada**, xususan, kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish, kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy kirish, ma'lumotlarni yig'ish yoki olib qo'yish, kompyuter tizimlari yoki ma'lumotlariga noqonuniy aralashuv, kompyuter tizimlaridan noto'g'ri maqsadda foydalanishni ta'minlash uchun zarur vositalarni ishlab chiqarish, tegishli vositalarni tarqatish yoki saqlash, maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilish qoidalarini buzish kiberjinoyat sifatida belgilangan. **Ikkinchi toifaga** esa, kompyuter tizimlari orqali firibgarlik yoki o'g'irlik, shaxsni o'g'irlash, intellektual multk, tovar belgisi va patentga bo'lgan huquqning buzilishi, spam xatlarni yuborish yoki tekshirish, bolalar huquqini suiiste'mol qilish yoki bolalardan foydalanish kiradi. **Oxirgi toifaga**, kompyuter tizimlari orqali nafrat uyg'otuvchi kontentlar yaratish, bolalar pornografiyasini ishlab chiqarish, tarqatish yoki saqlash hamda terrorchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash kiradi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tayyorlangan tadqiqotda, Xalqaro huquq tizimida kiberjinoyat bilan bog'liq huquqiy me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga olgan matnlar majburiy va majburiy emas deb farqlanadi. Hozirda, xalqaro maydonda 82

<sup>3</sup> COMPREHENSIVE STUDY ON CYBERCRIME – Draft, Febral 2013 /16.B

davlat kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy shartnoma ishtirokchilari hisoblanadi<sup>4</sup>.

Shu bilan bir qatorda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “*Tinchlik va xavfsizlik uchun axborot va aloqa texnologiyalari kengashi*” ham mavjud bo’lib, bu kengash asosan davlatlar o‘rtasida kiberxavfsizlikni kuchaytirishga va tahdidlarga qarshi birgalikda chora ko‘rishga qaratilgan tavsiyalar beradi. Bu kengashning faolyati hozirgi kunda juda ko‘p davlatlarda kiberjinoyatlarning oldini olishda va kiberxavfsilik choralarini kuchaytirishda xizmat qilmoqda . Bugungi kunda kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda shuningdek ushbu jinoyatning oldini olishda o’z ta’siriniko’rsatayotgan xalqaro hujjatlardan biri Budapesht Konvensiyasi yoki Kiberjinoyatchilikka qarshi Konvensiya. Ushbu konvensiya milliy qonunlarni uyg‘unlashtirish, tergov usullarini takomillashtirish va davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni oshirish orqali Internet va kompyuter jinoyatlarini (kiber jinoyatlar) hal qilishga qaratilgan birinchi xalqaro shartnomadir. U Fransianing Strasburg shahrida Yevropa Kengashi tomonidan Yevropa Kengashining kuzatuvchi bir qancha davlatlari Kanada, Yaponiya, Filippin, Janubiy Afrika va AQSH ning say-harakatlari tufayli davlatlarda keng tarqalishiga erishildi .

Konvensiya va uning tayyorlangan hisoboti Yevropa Kengashi Vazirlar

Qo‘mitasi tomonidan 2001-yil 8-noyabrdagi 109-sessiyasida qabul qilingan. 2001-yil 23-noyabrda Vengriya poytaxti Budapeshtda imzolash uchun chaqirilgan va 2004-yil 1iyuldan boshlab kuchga kirgan. 2020-yil dekabr holatiga ko‘ra, 65 davlat konvensiyani ratifikatsiya qilgan, yana to‘rtta davlat konvensiyani imzolagan, ammo uni ratifikatsiya qilmagan . Bu kiberjinoyatchilikni tartibga soluvchi birinchi ko‘p tomonlama qonuniy majburiy vositadir<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> COMPREHENSIVE STUDY ON CYBERCRIME – Draft, Febral 2013 /64.B

<sup>5</sup> [https://uzpedia.uz/pedia/kiberjinoyatlar\\_togrisida\\_konvensiya](https://uzpedia.uz/pedia/kiberjinoyatlar_togrisida_konvensiya)

Ushbu konvensiyaning maqasadlari quyidagilardan iborat bo'lib, ya'ni Konvensiya Internet va boshqa kompyuter tarmoqlari orqali sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi birinchi xalqaro shartnoma bo'lib, ayniqsa mualliflik huquqining buzilishi, kompyuter bilan bog'liq firibgarlik, bolalar pornografiyasi, nafrat jinoyatlari va tarmoq xavfsizligini buzish bilan bog'liq. Shuningdek, u kompyuter tarmoqlarini qidirish, topish, qo'lga kiritish va qonuniy ravishda jazolash kabi bir qator vakolatlar va tartiblarni o'z ichiga oladi. Uning muqaddimada bayon etilgan asosiy maqsadi jamiyatni kiberjinoyatlardan himoya qilishga qaratilgan umumiy jinoiy siyosatni olib borish, ayniqsa tegishli qonun hujjatlarini qabul qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iboratligi bizga ma'lum . **Konvensiya asosan quyidagilarga qaratilgan:**

- ✓ *Kiberjinoyatchilik sohasidagi jinoyatlarning milliy jinoiy-moddiy-huquqiy elementlarini va ular bilan bog'liq qoidalarni uyg'unlashtirish;*
- ✓ *Milliy jinoyat-protsessual qonunchiligidagi bunday jinoyatlarni, shuningdek, kompyuter tizimi yordamida sodir etilgan boshqa huquqbazarliklarni yoki ularga tegishli elektron shakldagi dalillarni tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur bo'lgan vakolatlarni ta'minlash ;*
- ✓ *Xalqaro hamkorlikning tez va samarali rejimini yaratish .*

**Konvensiyada quyidagi jinoyatlar belgilangan:** noqonuniy kirish, noqonuniy qo'lga olish, ma'lumotlarga aralashuv, tizimga aralashuv, qurilmalardan noto'g'ri foydalanish, kompyuter bilan bog'liq qalbakilashtirish, kompyuter bilan bog'liq firibgarlik, bolalar pornografiyasi bilan bog'liq huquqbazarliklar, mualliflik

huquqi va qo'shni huquqlar bilan bog'liq huquqbazarliklar<sup>6</sup>. Shuningdek, u saqlangan ma'lumotlarni tezkor saqlash, trafik ma'lumotlarini tezkor saqlash va qisman oshkor qilish, ishlab chiqarish tartibi, kompyuter ma'lumotlarini qidirish va olib qo'yish, trafik ma'lumotlarini real vaqt rejimida yig'ish va kontent ma'lumotlarini qo'lg'a kiritish kabi protsessual huquqiy masalalarni belgilaydi . Bundan tashqari, Konvensiyada saqlanadigan kompyuter ma'lumotlariga o'zaro yordamni talab qilmaydigan transchegaraviy kirishning ma'lum bir turi to'g'risidagi qoida mavjud (rozilik bilan yoki hamma uchun mavjud bo'lganda) va tezkorlikni ta'minlash uchun 24/7 tarmoqni o'rnatishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, shartlar va kafolatlar sifatida Konvensiya inson huquqlari va erkinliklarini, shu jumladan Inson huquqlari to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi , Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va boshqa amaldagi inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlardan kelib chiqadigan majburiyatlardan kelib chiqadigan huquqlarni munosib himoya qilishni ta'minlashni talab qiladi va mutanosiblik tamoyilini o'z ichiga oladi. Konvensiya Yevropa va xalqaro ekspertlarning to'rt yillik mehnati mahsulidir. U kompyuter tarmoqlari orqali irqchilik va ksenofobiya tashviqotining har qanday nashrini jinoiy tuhmat to'g'risidagi qonunlarga o'xhash jinoiy javobgarlikka tortuvchi qo'shimcha protokol bilan to'ldirildi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak Kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro tashkilotlar va davlatlar kelishuvlari zamonaviy dunyoda xavfsizlikni ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. BMT, INTERPOL, NATO, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar davlatlar o'rtasida kiberxavfsizlikni ta'minlash, tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish va axborot almashishni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ushbu kelishuvlar global miqyosda hamkorlikni kuchaytiradi va kiber tahdidlarga qarshi samarali kurashish imkonini beradi.

Asosan davlatlar kiberxavfsizlikni ta'minlaydigan xalqaro tashkilotlarga a'zo so'ng ma'lum bir majburiatlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi. Ya'ni davlatning

<sup>6</sup> [https://uzpedia.uz/pedia/kiberjinoyatlar\\_togrisida\\_konvensiya](https://uzpedia.uz/pedia/kiberjinoyatlar_togrisida_konvensiya)

asosiy xalqaro majburiyatlari xalqaro huquq normalariga rioya qilish, tinchlikni saqlash, inson huquqlarini hurmat qilish, xalqaro shartnomalar va kelishuvlarni bajarish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu majburiyatlar davlatning xalqaro hamjamiyatdagi o‘rnini mustahkamlaydi va xalqaro barqarorlikka hissa qo‘sadi. Shu bilan birga davlatlarning asosiy xalqaro majburiyatlari haqida ma’lumot berib o’tadigan bo’lsak . Davlat xalqaro tashkiltlarga a’zo bo’lganidan so’ng xalqaro huquqning umumiyligi prinsiplari va xalqaro shartnomalarda belgilangan qoidalarni bajarishga majburdir. Bu majburiyat o‘z ichiga davlatlar o‘rtasidagi shartnomalarni bajarish, xalqaro kelishuvlarga sodiq qolish va ularga rioya qilishni oladi. Shuningdek har bir davlat xalqaro shartnomalarga qo’shilganida ularning qoidalarni bajarishga o‘zini majbur qiladi. Masalan, savdo, ekologiya, xavfsizlik va boshqa sohalarda xalqaro shartnomalar mavjud bo‘lib, davlatlar ularga qat’iy rioya qilishi kerak. Shu bilan bir qatorda davlat transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish majburyatini ham bajarishi lozim . Bunda davlatlar xalqaro terrorizm, giyohvand moddalar savdosi, inson savdosi va kiberjinoyatchilik kabi transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda bir-biri bilan hamkorlik qilishlari kerak. BMT, INTERPOL, Yevropa Ittifoqi va boshqa tashkilotlar orqali davlatlar o‘zaro axborot almashish, tergovlar va jinoyatchilarni javobgarlikka tortishda yordam berish kabi xalqaro jinoyatchilikka qarshi choralarni kuchaytiradi. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy taraqqiyotni qo’llab-quvvatlash majburiyatlari davlatlarning xalqaro munosabatlarda barqarorlikni ta’minlashda muhim hisoblanadi. Bu jarayonda davlatlar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda hamkorlik qilishlari va xalqaro tashkilotlar, masalan, Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ) va BMT Taraqqiyot dasturi orqali qo’llab-quvvatlash ko‘rsatishlari kerak . Bizga ma’lumki davlatlarning xalqaro majburiyatları global tinchlik, xavfsizlik, inson huquqlari va barqaror rivojlanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu majburiyatlarga rioya qilish xalqaro hamjamiyatda o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi va davlatlarning xalqaro huquqiy tizimdagi mas’uliyatini kuchaytiradi. Shu sababli, davlatlar o‘z xalqaro majburiyatlarini bajarish orqali global barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo’shadilar.

O‘zbekiston qonunchiligidagi

kiberxavfsizlik sohasidagi majburiyatlarni tartibga soluvchi qoidalar mamlakatning axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, davlat infratuzilmasini himoyalash va raqamli tizimlar xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan normalar mavjud bo'lib bugungi kuda kiberxavfsizlik sohasidagi majburiyatlarini tartibga solib kelmoqda . Quyida O'zbekiston kiberxavfsizlik sohasidagi majburiyatlarini tartibga soluvchi asosiy qonunchilik qoidalari haqida keltirib o'tsak :

- ✓ **"Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun ;**
- ✓ **"Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun ;**
- ✓ **"Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun ;**
- ✓ **"Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun**
- ✓ **"O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik strategiyasi"**
- ✓ **"Kiberxavfsizlik to'g'risidagi " qonun .**
- ✓ **"Ma'lumotlarni shifrlash to'g'risida"gi qoidalar <sup>7</sup>.**

Yuqorida keltirilgan qoidalar O'zbekiston qonunchiligidagi kiberxavfsizlik sohasidagi majburiyatlar davlat organlari, xususiy sektor va fuqarolar uchun alohida qoidalarga bo'lingan. Ushbu qoidalar davlatning raqamli xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va xalqaro talablar bilan hamohang ravishda milliy infratuzilmani himoyalashga qaratilgan. Shu tariqa, O'zbekiston xalqaro hamkorlikni rivojlantirib, raqamli xavfsizlik sohasida barqaror va xavfsiz muhit yaratishga intilmoqda.

Xulosa qilib ayatdiga bo'lsak Global miqyosda kiberxavfsizlik tahdidlarining ko'لامи va murakkabligi ortib borayotgan bir paytda, davlatlarning xalqaro darajadagi majburiyatlarini belgilash zarurati kuchaymoqda. Kiberhujumlar nafaqat milliy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikka, balki fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlariga, davlat institutlarining barqarorligiga va xalqaro aloqalarga ham katta xavf solmoqda. Bu muammolar davlatlardan kiberxavfsizlik sohasida umumiy me'yorlar va qoidalarga amal qilishni, shuningdek, kiberhujumlarga qarshi kurashda

<sup>7</sup> O'zbekiston respublikasi milliy qoninchilik bazasi : <https://lex.uz/uz/>

o‘zaro hamkorlikni kuchaytirishni talab qiladi . Davlatlar kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun xalqaro konvensiyalar va kelishuvlar asosida o‘z zimmasiga majburiyatlar olishi lozim. Bu majburiyatlar qatoriga kiberhujumlarni oldini olish, kiberjinoyatlarni tergov qilishda o‘zaro yordam ko‘rsatish, texnologik infratuzilmani himoyalash, axborot almashinuvi hamda yuqori xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish kiradi. Shuningdek, davlatlar kiberxavfsizlik sohasida xalqaro huquq me’yorlariga riosa qilishlari, kiberurushning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo’llashlari ham zarur.

Xalqaro darajadagi majburiyatlar nafaqat davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga, balki umumiy xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik masalalarini hal qilishda xususiy sektor, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlarning ishtiroki ham muhimdir, chunki ular zamonaviy axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Muvofiqlashtirilgan sa’y-harakatlar davlatlarga nafaqat milliy, balki global miqyosda ham samarali kiberxavfsizlik tizimini shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, davlatlarning xalqaro kiberxavfsizlik me’yorlari va majburiyatlariga sodiqligi, o‘zaro hamkorlikni kengaytirishi va yangi tahdidlarga tezkor javob bera olish qobiliyati global kiberxavfsizlik tizimining mustahkam asosini yaratadi.

**Kiberxavfsizlik sohasida davlatlarning majburiyatlarini xalqaro darajada belgilashda yuzaga keladigan muammolarini hal qilish uchu muallif tomonidan quyidagi takliflar beriladi:**

**1-Taklif :** Davlatlar kiberxavfsizlikda o‘z hududida kiberjinoyatlarga qarshi choralarни ko‘rishga, infratuzilma xavfsizligini ta’minlashga va kiberxavfsizlik me’yorlariga riosa qilishga majbur bo‘lishi lozim. Xalqaro huquqda davlatlarning o‘z hududidan kiberjinoyatlarga ruxsat bermaslik va ularni bartaraf etish majburiyatini kuchaytirish.

**2-Taklif:** Xalqaro miqyosda kiberxavfsizlik standartlarini yaratish kiber tahdidlarga qarshi choratadbirlarni kuchaytiradi. Bu standartlar davlatlar,

kompaniyalar va tashkilotlar tomonidan texnik xavfsizlik talablarini bajarishni osonlashtiradi. BMT yoki Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi doirasida davlatlar uchun majburiy kiberxavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va bu standartlarga amal qilish majburiyatini joriy etish.

**3-Taklif:** Kiberjinoyatchilik global muammo bo‘lgani sababli, davlatlar o‘rtasida tergovlar uchun axborot almashinushi va hamkorlik zarur. Bu jarayonda davlatlar kiberjinoyatlarni aniqlash va ularni tergov qilishda bir-biriga yordam ko‘rsatishi kerak. INTERPOL yoki boshqa xalqaro tashkilotlar orqali kiberjinoyatlarga qarshi xalqaro tergov guruuhlarini tuzish, davlatlar o‘rtasida axborot almashish tizimini soddalashtirish. **4- Taklif:** Kiberxavfsizlik sohasida yuqori malakali mutaxassislar yetishmovchiligi global muammo hisoblanadi. Shuning uchun xalqaro darajada kadrlar tayyorlash dasturlarini rivojlantirish muhimdir. Xalqaro tashkilotlar ko‘magida kiberxavfsizlik bo‘yicha xalqaro ta’lim va o‘quv dasturlarini yaratish va davlatlar o‘rtasida mutaxassislar tayyorlashni qo‘llab-quvvatlash.

**5- Taklif:** Kiberhujumlar sodir bo‘lganda davlatlarning birgalikda harakat qilishi muhim. Shu sababli, davlatlar o‘rtasida kiber tahdidlarga tezkor javob berish uchun maxsus kelishuvlar o‘rnatalishi lozim. Davlatlar o‘rtasida kiber tahdidlarga qarshi tezkor javob berish tizimini yaratish va hujumga javob choralari bo‘yicha kelishuvlar o‘rnatish.

Yuqoridagi takliflardan xulosa qiladigan bo’lsak kiberxavfsizlik sohasida davlatlar uchun xalqaro darajada majburiyatlarni belgilash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Kiberxavfsizlik qoidalari va standartlarini umumiyl qabul qilish, hamkorlik va axborot almashish tizimlarini rivojlantirish xalqaro miqyosda kiberxavfsizlikning barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Shu tariqa, davlatlar birgalikda kiberjinoyatchilikka qarshi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishi va global kiber makonni xavfsizroq qilishlari mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati :

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi, 2022. – 21 b.
2. <https://www.unodc.org/unodc/en/organized-crime/open-ended-intergovernmental-expert-group-meeting-on-cybercrime.html> (28.05.2018)
3. COMPREHENSIVE STUDY ON CYBERCRIME – Draft, Febral 2013 /16.B
4. COMPREHENSIVE STUDY ON CYBERCRIME – Draft, Febral 2013 /64.B
5. [https://uzpedia.uz/pedia/kiberjinoyatlar\\_togrisida\\_konvensiya](https://uzpedia.uz/pedia/kiberjinoyatlar_togrisida_konvensiya)
6. [https://uzpedia.uz/pedia/kiberjinoyatlar\\_togrisida\\_konvensiya](https://uzpedia.uz/pedia/kiberjinoyatlar_togrisida_konvensiya)
7. O‘zbekiston respublikasi milliy qoninchilik bazasi : <https://lex.uz/uz/>